

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

MILITSIYA XODIMLARINI IJTIMOIY VA HUQUQIY JIHATDAN HIMoya QILISHNI KUCHAYTIRISH TO'G'RISIDA

Jumhuriyatning yetilgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini hal etish fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirishni, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash yuzasidan kechiktirmay chora-tadbirlar ko'rish zarurligini taqozo etadi. Bunday sharoitlarda militsiya xodimlari xavfsizligini, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Militsiya xodimlarini o'ldirish, qurolini olib qo'yish maqsadida ularga hujum qilish, ularning xizmat faoliyatiga aralashish hollari oz emas. Bu esa mehnatkashlarning adolatli norozilagini keltirib chiqarmoqda.

Militsiya xodimlarining huquqiy va ijtimoiy himoyalanganligini kuchaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaror qiladi:

I. 1. Militsiya xodimlari davlat hokimiyatining vakili ekanligi, davlatning alohida himoyasida bo'lishi belgilab qo'yilsin. Militsiya xodimining qonuniy talablarini barcha fuqarolar va mansabdor shaxslar bajarishga majburdirlar.

Militsiya xodimi qonuniy talabini bajarmaslik, shuningdek, uni haqoratlash, unga qarshilik ko'rsatish, do'q-po'pisa qilish, zo'rlik ishlatish va uning hayotiga tajovuz qilish, shuningdek, militsiya xodimining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishiga to'sqinlik qiluvchi boshqa xatti-harakatlarni qilish O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan javobgarlikka olib keladi.

2. Militsiya xodimining ko'rsatmalari fuqarolarning, u huquqbuzar, jabrlanuvchi yoki guvoh bo'lishidan qat'iy nazar, ko'rsatmalari bilan teng ravishda daliliy ahamiyatga egadir.

Zarur mudofaa, o'ta zarurat bo'lgan holatda yoki kasbiga ko'ra o'rinli tavakkalchilik qilish holatda militsiya xodimi tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlar garchand O'zbekiston Respublikasi [Jinoyat kodeksida](#) ko'zda tutilgan jinoiy harakatlar ko'rinishida bo'lsa ham, jinoyat deb hisoblanmaydi.

3. Militsiya xodimi turar-joy maydoni taqsimlashda, uyga telefon o'rnatishda, mакtabgacha bolalar tarbiya muassasalaridan o'rin berishda imtiyozlardan, transportning barcha turlariga navbatsiz bilet sotib olish, mehmonxonaga joylashish huquqidан foydalanadi, shuningdek, ijtimoiy-maishiy ta'minotning boshqa masalalarini hal etishda xalq deputatlari mahalliy Sovetlarining qarorlarida ko'zda tutilgan tartibda imtiyozlardan foydalanadi. Militsiya xodimining hayoti tegishli budget mablag'lari hisobidan davlat ijtimoiy sug'urtasidan albatta o'tkazilishi kerak.

Militsiya xodimi o'z xizmat vazifasini yoki ijtimoiy burchini bajarayotganligi munosabati bilan uning mulkiga yetkazilgan zarar tegishli budget mablag'lari hisobidan to'la hajmda to'lanadi, so'ngra sud orqali bu zarar aybdordan undirib olinadi.

4. Militsiya xodimi tartibni saqlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha o'z xizmat vazifalarini bajarayotganida qasddan o'ldirilganda uning oilasiga tegishli budget mablag'lari hisobidan uning ellik oylik daromadi miqdorida bir yo'la nafaqa berilib, so'ngra bu pul aybdorlardan undirib olinishi belgilab qo'yilsin. O'z boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan halok bo'lganning oilasiga qonunda ko'rsatilganiga muvofiq pensiya belgilansin.

Militsiya xodimiga u o'zining professional faoliyati bilan shug'ullana olmaydigan darajada og'ir tan jarohatlari yetkazilganda tegishli budget mablag'lariidan 25 oylik daromadi miqdorida pul to'lanib, so'ngra bu pul aybdorlardan undirib olinishi, shuningdek, uning mansab okladi bilan pensiyasi o'rtasidagi farq to'lanishi belgilab qo'yilsin.

Yengilroq tan jarohatlari yetkazilganda tegishli budget mablag'lari hisobidan 5 oylik daromadi miqdorida pul to'lanib, so'ngra bu pul aybdorlardan undirib olinishi belgilansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(II, III va IV bo'limlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi 73-l-son qaroriga muvofiq chiqarib tashlangan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995-y., 6-son, 121-modda)

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. KARIMOV